

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI**

RUSLAN RAZZAKOV

MUHANDISLIK ETIKASI

/ O‘QUV QO‘LLANMA /

Toshkent 2023

Ushbu o'quv qo'llanma Toshkent Irrigatsiya va Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti -milliy tadqiqot universiteti (2023 yil) _____" _____dagi _____ - sonli bayonnoma). Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

Mazkur o'quv qo'llanma "Toshkent Irrigatsiya va Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti"- Milliy tadqiqot universitetining 60710400-"Ekologiya va atrof muhit muhofazasi (suv xo'jaligida) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib unda fanning namunaviy dasturi asosida "Mutaxassislik etikasi" fani bo'yicha zaruriy bilimni shakllanadigan xajmda malumotlar berilgan.

O'quv qo'llanmada Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi va uning tasarrufidagi boshqarma va markazlar, Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasidagi mavjud qonunlar, konsepsiyalar, xorijiy hamkorlik va tajribalar keltirilgan.

Muallif: texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, phd **Ruslan Ishqulovich Razzakov**

Taqrizchilar: **R.Eshonqulov** - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi "Toshkent Irrigatsiya va Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti"-milliy tadqiqot universiteti Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti professori, texnika fanlari doktori

O. Narzullaev - O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Toshkent Davlat Yuridik universiteti Ekologiya va agrar huquq kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori

MUQADDIMA

Mazkur o'quv qo'llanma Toshkent Irrigatsiya va Qishloq ho'jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti Milliy tadqiqot universitetining 60710400–Ekologiya va atrof muhit muhofazasi(suv xo'jaligida) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan.

Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi sohasida ekolog muhandislarni tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Ushbu o'quv qo'llanma Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi sohasida mavjud vazirlik va uning tuzilmasi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularni saqlash va qayta tiklash, tabiiy resurs ob'ektlarining taqsimlanishi, ulardan turli maqsadlar uchun foydalanish hamda ularni turli salbiy ta'sirlardan muhofaza qilish maqsadida ularni nazorat qilish va monitoringini o'tkazishga oid mavjud qonunlar, konsepsiyalar, davlat dasturlari, shu bilan bir qatorda halqaro va davlatlararo miqyosidagi ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish masalalarini yoritishga qaratilgan. Ayniqsa, bu o'quv qo'llanma atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va uning resurslaridan foydalanish, muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta'minlashning asoslarini o'rganish, tabiiy resurslarga nisbatan yosh mutaxassislariga, amalda xizmat qilayotgan atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha davlat inspektorlariga qonunda belgilangan ma'muriy jazo choralarini to'g'ri qo'llash, ekologiya sohasidagi qonunlar va boshqa normativ-xuquqiy hujjatlar haqida nazariy bilimlarini mustahkamlash va amalda qo'llash malakalarini shakllantirishda ham muhim qo'llanma bo'ladi.

Ushbu qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son [qarorida](#) belgilangan vazifalarni bajarish, oliy ta'lim muassasalarini ilg'or jahon tajribalari asosida yaratiladigan yangi avlod darslik, o'quv qo'llanmalari ham davriy nashrlar bilan tizimli ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 10 oktyabrdagi 816-son qarorida belgilangan talablarga asosan tayyorlangan: **o'quv**

qo'llanma — darslikni qisman to'ldiruvchi, muayyan fan dasturi bo'yicha tuzilgan va mavzularni zaruriy hajmda tizimli yoritib beradigan, fan asoslarining mukammal o'zlashtirilishini ta'minlovchi, mazmunan va shaklan ta'lim turlariga bakalavriat, magistratura, oliy ta'limdan keyingi qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim talablariga moslashtirilgan, nazariy yoki amaliy mashq va mashg'ulotlarga mo'ljallangan, talaba va malaka oshirish kurslari tinglovchilarilarda fanga taalluqli bilim, ko'nikma va malakalar shakllanishiga xizmat qiladigan, rasmiy tasdiqlanadigan o'quv nashridir.

Ushbu o'quv qo'llanmada asosiy e'tibor muhandislik etikasi fanining asosiy maqsadini amalga oshirishga, bo'lajak ekolog-muhandislarga tanlagan sohalari bo'yicha bilimlarning nazariy asoslarini, ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishining sjozasidagi mavjud davlat organlari, asosiy tushunchalarini, ob'ektlarning xavflilik kategoriyalarini, ekologik normativ xujjatlarni, qonunlarni va tamoyillarini o'rgatish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat. O'quv qo'llanmada ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi sohasida tabiiy resurslardan samarali foydalanish, ularni muhofaza qilish va aholi xavfsizligini ta'minlashning amaliy masalalarini davr talabi darajasida hal qilish tajribasi va ko'nikmalarini shakllantirish hamda turli tabiiy resurslar bilan bog'liq halqaro va davlat miqyosidagi masalalarni hal qilishdagi ahamiyatini bilish, amalda qo'llash malakasini shakllantirishga alohida e'tibor berilgan.

O'quv qo'llanmada fan bo'yicha talabalar va qayta tayyorlash va malaka oshirish markazlari tinglovchilarining tasavvur, bilim, ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar, ekologik va suvga oid qonunlar, qonunga asoslani chiqarilgan hujjatlari mazmun va mohiyatini tushunish, ularni hayotga tadbiq etish va targ'ib qilish, huquqiy hujjatlarni rasmiylashtirish borasidagi malaka va ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.